

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

**Karimov Odiljon Toxirovich,
ADPI, Iqtidorli talabalarni ilmiy tadqiqot
faoliyatini tashkil etish bo‘limi
1-toifali muhandisi**

Annotatsiya: Insoniyat tarixidan ma’lumki, iqtidorlilik turlicha namoyon bo‘ladi, lekin odamlar u faqat aniq shaklda namoyon bo‘ladi, ya’ni iqtidorli o‘quvchi faoliyatining natijalari yaqqol va shubhasiz ko‘rinadi deb o‘ylaydi. Ammo, aslida, aniq ko‘rinadigan narsadan tashqari, odamlar odatda sezmaydigan va o‘zini kam ifodalagan, yashirin shaklda namoyon qiladigan iste’dodlar ham mavjud. Tan olishimiz kerakki, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari kamdan-kam hollarda o‘z iqtidorini namoyon etadi va shuning natijasida o‘z iqtidorini rivojlantirish borasida e’tibordan chetda bo‘ladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflardagi iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda rivojlantiruvchi, boyituvchi yondashuv - bugungi kunda dunyo pedagogikasiga “enrichment” tushunchasi bilan kirib kelayotgan yondashuv asosida ish olib borish zarur. Maqolada mazkur muammo tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: iqtidorli o‘quvchi, iste’dod, enrichment yondashuv, qobiliyat, ichki salohiyat, sezgirlik, optimizm.

Insoniyat tarixidan ma’lumki, iqtidorlilik turlicha namoyon bo‘ladi, lekin odamlar u faqat aniq shaklda namoyon bo‘ladi, ya’ni iqtidorli o‘quvchi faoliyatining natijalari yaqqol va shubhasiz ko‘rinadi deb o‘ylaydi. Ammo, aslida, aniq ko‘rinadigan narsadan tashqari, odamlar odatda sezmaydigan va o‘zini kam ifodalagan, yashirin shaklda namoyon qiladigan iste’dodlar ham mavjud. “Iqtidorlilar bilan shug‘ullangan o‘qituvchilar oson o‘rganish iqtidorlilikni anglatishini aniq va yaqqol ko‘rinishi deb tushunishadi. Ammo, bu tushuncha asosida ish olib borishimiz ko‘pincha xatolikka, iqtidorni so‘ndirib qo‘yishimizga sabab bo‘lib qoladi. Misol uchun, buyuk fizik Albert Eynshteyn o‘z qobiliyatini nisbatan kech ko‘rsatgan, shuning uchun o‘sha davrda uning ko‘plab o‘qituvchilari uni “qobiliyasiz” deb hisoblashgan va keyinchalik uni, hatto, haydab yuborishgan”[5]. Shuning uchun ham bugungi kunda butun dunyo miqyosida turli yo‘nalishlardagi iqtidorlilarga e’tibor, ularning iqtidoridan foydalanish, ularga shart-sharoitlar yaratish, salohiyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda

Zamonaviy ta’lim tizimi talablariga ko‘ra, butun dunyoda umumta’lim tamoyiliga asoslangan ta’lim tizimi iqtidorlilarni oddiy o‘quvchilar bilan tenglashtirib, ularning talabini qondira oladigan darajada bilim olishga imkon bermaydi. Dunyoning turli mamlakatlarida mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, oddiy ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 30%da ijodiy qobiliyat susaygan.

Pedagogika tarixida iqtidorli bolalarni baxolashga ikki xil qarash mavjud. “Iqtidor – bu noyob hodisa” degan qarashni qo‘llab-quvvatlovchi mutaxassislarga qarshi turuvchi ikkinchi qarash tarafdorlari: “Har qanday bola bilan umid va sabr bilan ish olib boring, chunki ko‘pchilik e’tiboriga tushmagan bolada ham iqtidorning ochilmagan qirralari bor”, - degan fikrni bildirishadi[5]. Iqtidorli bolalarni baxolashga qaratilgan bu ikki xil qarash asosida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining iqtidorini rivojlantirishga hissa qo‘shishdir. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos qobiliyatlari darajasini aniqlash va bu qobiliyatni rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Bu jarayondan ko‘rinib turibdiki, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash ko‘plab mutaxassislarning birgalikdagi harakatini talab etadi. Tan olishimiz

kerakki, boshlang‘ich sinflar o‘quvchilari kamdan-kam hollarda o‘z iqtidorini namoyon etadi va shuning natijasida o‘z iqtidorini rivojlantirish borasida e’tibordan chetda bo‘ladi. Kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lishi nisbatan aniq bo‘lgan yuqori sinf o‘quvchilaridan farqli ravishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘z kelajagi haqida hali tassavvurga ega emaslar. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflardagi iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda rivojlantiruvchi, boyituvchi yondashuv - bugungi kunda dunyo pedagogikasiga “enrichment” tushunchasi bilan kirib kelayotgan yondashuv asosida ish olib borish zarur.

Enrichment – inglizcha so‘z bo‘lib “boyitish” ma’nosini bildiradi. Ruschadagi tarjimasi “nakopitelno”, “obogamyeniye” so‘zlariga to‘g‘ri keladigan bu yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchining bilimni boyitish, qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchidagi mavjud iqtidorni imkon qadar yuzaga chiqarishga qaratiladi. “Iqtidorli o‘quvchining ichki salohiyatini rivojlantirishga, o‘z hayotining egasi, ijodkori bo‘lishga, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yish va shu maqsadga erishish yo‘llarini topishga o‘rgatishga e’tibor qaratish zarur. Iqtidorli o‘quvchi o‘z maqsadiga erishish uchun erkin fikrlashi, butun qobiliyatidan foydalanishni bilishi va javobgarlikni xis qilishi kerak”[5].

E’tirof etish kerakki, har bir bola iqtidor egasi bo‘lib tug‘iladi. Bu iqtidorni yuzaga chiqarish faqat alohida shaxs uchun emas, balki jamiyat va uning taraqqiyoti uchun zarurdir. Yana shuni aytib o‘tish kerakki, iqtidor – inson ruhiyatining butun hayoti davomida tizimli rivojlanadigan psixikaning imkoniyati bo‘lib, insonning boshqalarga nisbatan noan’anaviy va kutilmagan yutuqlarga, natijalarga erishishini ta’minlaydi. Iqtidor insonning barcha imkoniyatlarini va fikrlashini hayotning yangi talablarini hal qilishga va yangi sharoitlarga moslashishga yo‘naltiradi. SHuning uchun zamonaviy pedagoglarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, iqtidorni kerakli yo‘nalishda rivojlantirish uchun ijodiy yondashish va uni yuzaga chiqarish uchun zarur shart-sharoitni yaratish, o‘quvchi yoshlar ruhiyatini tushuna olish va malakali yordam bera olishdir.

“Shuni aytib o‘tish kerakki, iqtidorli o‘quvchi doimo nima bilandir chalg‘igan, doimo ta’sirchang odam taassurotini qoldirishi mumkin. Ular uchun standart - qat’iy talablar yo‘q, ular uchun konformist – intizomli, tartibli, itoatkor bo‘lish qiyin, ayniqsa, mavjud norma va qoidalar ularning manfaatlariga zid bo‘lsa”[5]. Barchamiz iqtidorli o‘quvchi soatlab o‘tirib, o‘zi yoqtirgan narsani qilishi mumkinligiga ishonamiz. Lekin alohida e’tibor bilan – iqtidorli bolaning iste’dodini boyitishga yondashgan holda, pedagogik usullar asosida ish olib borilmasa, o‘quvchilarning ko‘pchiligi toqatsizlik, zerikish xususiyatini namoyon qiladi. Agar bunday o‘quvchiga pedagogik yondashuv asosida e’tibor berilmasa, unda qiziqishi yo‘qoladi va uning iste’dodi rivojlanishdan to‘xtaydi.

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashni tashkil etishda bir qator muammolar mavjud. Avvalo quyidan, ya’ni maktablardan talab bo‘lmaganligi uchun oliy ta’lim muassasalarida aynan iqtidorli talabalar bilan ishlovchi mutaxassislar tayyorlanmaydi. Buning natijasida maktablarda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlovchi o‘qituvchilarning yetarli kasbiy mahoratga ega emas va ular uchun zarur o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarga e’tibor qaratilmagan. Jamiytdagi bu muammoni bartaraf etish uchun – iqtidorlilarga ta’lim va tarbiya berish uchun ijtimoiy buyurtma talab qilinadi. Umumta’lim maktablari talabi bilan oliy ta’lim tizimi, pedagog olimlar tomonidan iqtidorlilar bilan ishlashning nazariy va uslubiy, amaliy tamoyillar majmuasi ishlab chiqiladi. Biroq, ayni paytda dunyo miqyosida bu jarayon rejasiz, o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmoqda. SHuning uchun ham pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashga qaratilgan usullar, jumladan, enrichment yondashuv bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishi, iqtidorlilarning iste’dodini yuzaga chiqarishga ko‘mak beruvchi uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashga e’tibor qaratishi zarur. Bu borada Andijon davlat pedagogika instituti olimlari, ilmiy tadqiqotchilarining dastlabki xulosalari shundan iboratki, iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash uchun avvalo o‘quvchining

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

xulq-atvoridan kelib chiqqan holda yakka tartibda yoki jamoaviy tarzda ishlash usullarini tanlab olish kerak.

Yakka tartibda ish olib borish jarayonidan maqsad o‘quvchining erkin faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratish. Chunki yakka tartibda shug‘ullanuvchi iqtidorli o‘quvchida mustaqil harakat qilish imkoniyati kengroq bo‘ladi. Yakka tartibda ish olib borishda maslahat berish, o‘quvchining fikrini tinglash va bilish, reja asosida ish olib borishga e’tibor qaratish samarali natija beradi.

Bu borada shuni aytish kerakki, XX asr oxiriga kelib barcha rivojlangan mamlakatlarda eski usuldagi ta’lim tizimiga tanqidiy qarashlar kuchaydi. Barchani bir hil usulda, bir xil qarash bilan o‘qitilishiga e’tirozlar ko‘paydi va bu eng avvalo, iqtidorli va iste’dodli o‘quvchilar bilan ishlash masalasiga qaratildi. Kelajakda kashfiyotlar qiluvchi, ijod bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilarning umumiy ma’lumotlar bilan chegarlanuvchi ta’lim jarayoni qiziqitirmay qo‘ydi. “Umumta’lim maktablarida ham iqtidorlilarga malakali pedagogik, psixologik yondashuv asosida yakka tartibda, qo‘shimcha e’tibor va yangicha yondashuv bilan ish olib borilishiga talab oshdi. Bu talab oliy ta’lim muassasalarida ham kuchaydi va iqtidorlilar ta’lim jarayonida o‘ziga xos yondashuvni, yangicha bilimni kutmoqda. Bu talabni qondirishda esa:

- iqtidorli va qobiliyatli talabalarning muammolarini aniqlash;
- pedagoglarning iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘yicha psixologik, pedagogik va uslubiy tayyorgarligi yetarli darajada bo‘lishi;
- iqtidorli va qobiliyatli talabalar bilan ishlash uslubiyati (metodikasi)ning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi”[1].

Har bir yoshni – ulkan maqsadlar bilan izlanishlar olib borayotgan, kashfiyotlar qilishga intilayotgan iqtidorli, iste’dodli farzandlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni, ularga barcha imkoniyatlar yaratishni yangi davr talab etmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Агафонова Э., Писанко М. Одаренный студент: Миф или реальность <https://serdobinzewa.wixsite.com/darfp/--1-cw1w>.

2. Якина Ю.И. Подготовка родителей младших школьников к взаимодействию с одаренным ребенком: Автореф. дисс.кан. пед.наук. – Ижевск, 2011. 3-с.

3. Маланина Н.А. Современные подходы к работе с одарёнными детьми. - Республика Чувашия. 2018 <https://urok.1sept.ru/articles/670373>

4. Агафонова Э., Писанко М. Одаренный студент: Миф или реальность <https://serdobinzeva.vixsite.com/darfp/--1-cv1v>.

5. Тарантей В.П., Хацкевич Г.А. Одаренный студент в вузе: вопросы преемственности школьного и вузовского образования. Белоруссия <https://elib.grsu.by/katalog/166984-367502.pdf>